
ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISHNING XALQARO HUQUQIY MASALALARI

Eliboyev Hayitmurod Jonibek o'g'li

Bajardi: Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya

unverstiti 1-1a-24-guruh talabasi

Odam savdosi bugungi dunyoning eng global muammolaridan biri. Ushbu jinoyat aynan biror mintaqqa yoki davlatning muammosi emas balki, butun dunyo qarshi turishi kerak bo'lган jinoyatdir. Ushbu maqolada odam savdosiga qarshi kurashish uchun turli xalqaro tashkilotlar jumladan BMT tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab konvensiyalar, protokollar va mamlakatlar tomonidan bиргаликда olib borilayotgan choralar haqida so'z yuritamiz.

Hozirgi globallashuv sharoitidagi eng dolzarb muammolardan biri bu odam savdosidir. Ushbu jinoyat orqali har yili huquqbuzarlar minglab kishilarning hayotiga zomin bo'lmoqda. BMTning narkotik va jinoyatlar bo'limi (UNODC) rahbari Y.Fedorov taqdim etgan hisobotga ko'ra, birgina 2016-yilning o'zida 97 ta davlatdan 24 mingdan ziyod kishi odam savdosidan jabr ko'rgan. Shulardan 49% ayol, 23% qiz bola, 21% erkak va 7% voyaga yetmagan o'g'il bolalar ekanligi aniqlangan. Aynan mana shu raqamlar odam savdosi qanchalik dolzarb muammo ekanligini ko'rsatib turibdi.

Ushbu jinoyat odamlardan foydalanish maqsadida yollash, tashish, qabul qilish, topshirish, yashirishda namoyon bo'ladi va odamlarni aldash, o'g'irlash, zo'lik ishlatish, zo'rlik ishlatish bilan qo'qitish yoki majburlashning boshqa usullari orqali amalgalashiriladi. Jinoyat insonlarning hayoti va sog'lig'ining daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan sodir etiladi. Ushbu jinoyatdan ko'zlangan asosiy maqsad boylik orttirishdir. Odam savdosiga odam oldi -sotdisi ya'ni odamni sotuvchiga berilgan ma'lum miqdordagi pul mablag'i evaziga boshqa odam ixtiyoriga o'tkazishdir. Ushbu jinoyatda odamlar turli sohalrga ekspulantatsiya qilinadi. Ekspulantatsiya jarayoni turlicha bo'lishi mumkin. Masalan:

Ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik ishlarida foydalanish

Uy-ro'zgor ishlarida foydalanish

Tilamchilikka majburlash

Sun'iy onalik va bola tug'ishga majburlash

Majburiy nikoh va jinsiy erkinlikka qarshi harakatlar

Inson to'qimalarini traspulatatsiya qilish

Hozirgi kunda ushbu jinoyatning 3 ta keng turi tarqalgan. Bular: jinsiy ekspulatatsiya, majburiy mehnat ham inson a'zolarini transpulatatsiya qilishdir.

Jinsiy ekspulatatsiya uchun sotilgan odamlar asosan ayollar hisoblanib, ushbu jirkanch ish uchun sotilgan ayollar umumiyligi odam savdosi qurbanlarining 72% to'g'ri keladi.

Majburiy mehnat uchun esa asosan erkaklar jalb qilingan va bu ko'rsatkich umumiyligi odam savdosidan jabr chekkan erkaklarning 85,7 % tashil etadi.

Inson to'qimalarini transpulatatsiya qilish jinoyati unchalik ko'zga tashlanmaydigan odam savdosining turi hisoblanib, umumiyligi odam savdosining 1% ini ushbu soha tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra inson to'qimalarini sotish jinoyatchilar uchun yiliga 1 mlrd. dollardan ortiq foyda keltiradi. Aynan mana shu soha aytib turibdi odam savdosi qanchalik dolzarb muammo ekanligini.

Insonlarning odam savdosi jinoyati qamroviga tushib qolishining asosiy sababi, tag zamiriga nazar tashlaydigan bo'lsak ochko'zlik, ma'naviy qashshoqlik, dunyoga haddan tashqari hirs qo'yish va nafsiga qul bo'lish kabi illatlar yotganligini ko'ramiz. Ushbu jinoyatning rivojlanishi uchun turtki bo'layotgan asosiy muammo esa bu xorijiy davlatlarga boorish va u yerda ishga joylashish kabi sohalarda yetarli ma'limot hamda bilimlarga ega emasligidir.

Jinoyatning ushbu turigaqarshi kurashish maqsadida barcha davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan turli xil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 1948-yilda BMT tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ni tom ma'nodagi odam savdosiga qarshi kurashish uchun chiqarilgan birinchi hujjat deyishimiz mumkin. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ning 4-moddasida quyidagicha yozilgan:

Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik yoki qul savdosining barcha ko'rinishlari ta'qilanganadi.

Keyinchalik 2010-yilda BMT tomonidan qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurash konvensiyasi". BMTga a'zo bo'lgan barcha davlatlarga tavsiya etilgan. Ushbu hujjat odam savdosiga qarshi kurashish, uning oldini olishva odam savdosidan jabr chekkanlarga moddiy, ma'naviy hamda amaliy yordam ko'rsatish maqsadida

ishlab chiqilgan. 2023-yil holatiga ko'ra 180 dan ortiq davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Shuningdek, odam savdosiga qarshi kurashish maqsadidagi hujjatlar qatoriga Yevropa Ittifoqi tomonidan 2011-yilda qabul qilingan "Odam savdosiga qarsgi kurashish maqsadidagi direktiv" ni ham kiritishimiz mumkin. Ushbu hujjat Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan barcha davlatlar uchun majburiy hisoblanadi. Ushbu direktivning odam savdosi bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar darajasi bo'yicha sanksiyalarni belgilaydi, hamdaushbu jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarni himoya qiladi va prifilaktika ishlarini amalga oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, jinoyatchilikning ushbu turiga qarshi kurashish uchun, Yevropa Ittifoqi kengashi tarkibida odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha ekspertlar guruhi (GRETA) ham mavjud.

Odam savdosiga qarshi kurashish uchun ishlab chiqilgan keying xalqaro hujjat bu- "Boshqaruv va odam savdosiga kurashish to'g'risidagi tavsiyalar". Ushbu xalqaro huquqiy hujjat 2002-yilda BMT tomonidan qabul qilingan. Asosiy maqsadi odam savdosiga qarshi kurashishda va undan jabr ko'rgan shaxslarga amaliy yordam ko'rsatishda davlatlarga turli tacsiyalar berishdir. Ushbu hujjat BMT a'zo bo'lgan barcha davlatlar uchun tavsiya etilgan.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlardan tashqari O'zbekiston Respublikasida ham ushbu jinoyatga qarshi kurashish uchun bir necha moddalar ko'rsatib o'tilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasida quyidagicha holat taqdim etilgan:

Odam savdosi, ya'ni odamlarni oldi-sotdi qilish yoxud odamni umdan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish yoki qabul qilish- 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu moddaga ko'ra usha harakatlar

- 1) 18 yoshga to'limaganligi aybdorga ayon bo'lgan holatda sodir etilsa
- 2) Jabrlanuvchining o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa
- 3) O'ta xavfli retsidiivist tomonidan sodir etilsa

1.Uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilsa -
8 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Shuningdek 2008-yil 18-martda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Ushbu qonunning asosiy

maqsadi odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu qonunga ko‘ra odam savdosiga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardir:

- Qonuniylik
- Odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxslar javobgarligining muqarrarligi
- Odam savdosidan jabrlanganlarningkamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik,Ijtimoiy sheriklik

Insonlarni ushbu jinoyat jabrlanuvchisi bo‘lib qolishdan himoyalash, shuningdek ushbu jinoyatchilikka qarshi targ‘ibot ishlarini amalga oshirishni kuchaytirish maqsadida 2013-yildan buyon 30-iyun “Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Afsuski butun dunyo bo‘ylab olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlariga qaramay har yili millionlab insonlar “zamonaviy qullik” qurbaniga aylanmoqda.ular orasida ayollar, keksalar, yoshlar va hattoki yosh bolalar ham borligi achinarli holat albatta. Buning sababi nima, bu narsalarning asosiy sababi men o‘ylashimcha, odamlarning o‘zida, ularning ma’naviy qashshoqligida, odamlar dunyoqarashining torligidadir. Dunyo bo‘ylab avj olib borayotgan ushbu illatga qarshi kurashgandan ko‘ra uning oldini olgan, ya’ni kishilarning ma’naviy darajasini, huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini o’sтирishimiz ularning dunyoqarashini boyitishimiz zarurdir. Zero “ Kasallikni davolagandan, uning oldini olgan ma’quldir”.

Foydalilanilgan adabiyotlar va saytlar:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
- 2) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
- 3) ” 11-sinf davlat va huquq asoslari” N.Ismatova, O.Karimova
Toshkent 2018
- 4) <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/odam-savdosi-global-muammo>
- 5) <https://www.trt.net.tr/uzbek/dunyo/2019/01/08/dunyoda-72-ayol-va-qizlar-odam-savdosi-qurban-1121223>
- 6) <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32011L0036>
- 7) <https://www.clebd.org/journal/5.html>
- 8) <https://lex.uz/mact/-111453>
- 9) <https://lex.uz/mact/-1339436>